# XALQ DEPUTATLARI URGUT TUMANI KENGASHI QARORI

141600, Urgut tumani, Navoiy shoh ko'chasi, 104-uy, 66-483-04-42

2022 - yil 20 - yanvar VI-53-4-7-105-K/22 Urgut tuman hokimligi

## Urgut tumanidagi ayrim mahalla fuqarolar yig'inlari hududlarini o'zgartirish, yangi mahalla fuqarolar yig'inini tashkil etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunining 6- va 31-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi qarori bilan tasdiqlangan "Tumanlar, posyolkalar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risida"gi Nizom, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2021-yil 6-oktabrdagi 08-05510-sonli xati, shuningdek "Geografik obektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to'g'risida"gi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi 2021-yil 6-oktabrdagi ekspert xulosasini inobatga olib, xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining oltinchi chaqiriq, ellik uchinchi sessiyasi

## QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2021-yil 6-oktabrdagi 08-05510-sonli xati, shuningdek, "Geografik obektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to'g'risida"gi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi 2021-yil 6-oktabrdagi ekspert xulosasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda 1 ta yangi "Mingbog'" mahalla fuqarolar yig'ini tashkil etilsin.

3. Tuman hokimligi moliya bo'limiga:

tumanda yangi tashkil etilgan "Mingbog" mahalla fuqarolar yig'ini uchun 2022-yil yanvardan boshlab shtat birliklarini ajratish va saqlash bilan bog'liq xarajatlarni 2022-yil mahalliy budjet parametrlarida rejalashtirsin.

4. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (U.Kamolov), tuman hokimining o'rinbosari – Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi

boshlig‘i (U.Salomov), tuman hokimligi moliya bo‘limi va sektor rahbarlariga:

yangi tashkil etilayotgan “Mingbog” mahalla fuqarolar yig‘ini xodimlari uchun yaratilgan ish sharoitlari hamda aholiga xizmat ko‘rsatish uchun barcha qulayliklar mavjudligini o‘rganib chiqish va amaliy yordamlar ko‘rsatish vazifalari yuklatilsin.

5. Tumandagi yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inining chegarasini aks ettiruvchi chizmasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i (Z.Mamadoliyev), tuman hokimining o‘rinbosari – Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (U.Salomov)larga 10 kun muddatda yangi tashkil etilayotgan mahallaning muhr-tamg‘asi va burchak shtampini belgilangan tartibda tayyorlash vazifasi yuklatilsin.

7. Tuman hokimi o‘rinbosari – Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (U.Salomov) bir oy muddatda yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inida amaldagi qonun talablariga rioya etgan holda pandemiya sharoitidan kelib chiqib yangi saylov o‘tkazish vazifasi topshirilsin.

8. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Ziyodov)ga mazkur qarorni belgilangan tartibda tuman hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirish hamda ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish vazifasi yuklatilsin.

9. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Yuldoshev), Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yarboboyev) hamda tuman hokimi o‘rinbosari – Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (U.Salomov) zimmasiga yuklatilsin.

**Sessiya raisi** **Rashidov X. M.**

Халқ депутатлари Ургут туман
Кенгашининг
2022 йил 20 январдаги
VI-53-4-7-105-K/22-сон қарорига
1-илова

# Urgut tumanida yangi tashkil etilgan “Mingbog” mahalla fuqarolar yig‘inining chegarasini aks ettiruvchi chizmasi

